



THE ROLE OF GAME TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF ORGANIZATIONAL QUALITIES IN GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Kamalova Azima Odiljon qizi ¹

¹ Namangan State University master of History of Pedagogical Theory

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4706984>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2021
Accepted: 19th April 2021
Online: 21st April 2021

KEY WORDS

Education, Capability, pedagogic technology, game technology, Private idea, motivation

ABSTRACT

Today, we turn to modern pedagogical technologies to solve educational problems. In the process of education, we can use the technology of "Game", as well as its implementation, the formation of moral norms in students, as well as the achievement of aesthetic and labor education tasks.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLANTIRISHDA O'YIN TEXNOLOGIYASINING O'RNI

Kamalova Azima Odiljon qizi ¹

¹ Namangan davlat Universiteti pedagogika nazariyasi tarixi magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2021
Ma'qullandi: 19-aprel 2021
Chop etildi: 21-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Tarbiya, qobilyat, pedagogik texnologiyalar, "Oyin" texnologiyasi, mustaqil fikr, motivatsiya.

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ta'lim masalalarini yechish uchun biz zamonaviy pedagogik texnologiyalarga murojat etamiz. Ta'lim tarbiya jarayonida "Oyin" texnologiyasidan foydalanish, uni amalga oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarda axloq normalarining tarkib topishi, shuningdek estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarining xam bajarilishiga erishish imkoniyatiga ega bo'lishimiz mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan fuqorolarning intellektual saloxiyati, shijoati, yosh avlodnong kamoloti xamda ularning ma'naviy-axloqiy sifatlariga egaliklari bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasida komil inson malakali mutaxsisni tarbiyalash yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy xarakat yosh

avlodda ijtimoiy faollikni shaklantirish, ta'lim, mehnat va ishlab chiqarish jarayonlarini shaxsiy qobilyatlarini to'laqonli namoyish etish, shuningdek, o'zlari mansub bo'lgan jamoallarning imkoniyatlarini muyyan maqsad atrofida birlashtirish

borasidagi layoqatni tarbiyaalshda muhim ahamiyat kasb etadi

Ma'lumki mamlakatimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi Ta'lim sohasida xam keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda .Shu asnda o'quv muassasalari moddiy tehnika bazasini mustahkamlash va o'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablari darajasida bilim olish, kasb egallashga yordamlashish maqsadida, ta'lim muassasalarida bu yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda tarbiyalanuvchi o'quvchi yoshlar qobiliyati va istedadini rivojlantirishni, aniq maqsadlarini ko'zlagan holda ular bilan ishlash tizimini takomillashtirish , ushbu yo'nalishda oila ,mahalla va maktab hamkorligini kuchaytirish, jamoatchilik etiborini o'quv tarbiya va o'quvchi yoshlar shaxsini qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etish chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlariga berilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to'g'ri o'rganib o'quvchi yoshlarga tadbir etib keng fikrli barkamol xar soxada xabardor intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlash bugungi kun pedagoglarining oldiga qo'ygan eng dolzarb masalalaridan biri.

Bugungi kunda bu kabi masalalarni yechish uchun biz zamonaviy pedagogik texnologiyalarga murojat etamiz. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri "Oyin " texnologiyasidir. Ta'lim tarbiya jarayonida " Oyin " texnologiyasida foydalanish ,uni amalga oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarda axloq normalarining tarkib topishi , shuningdek estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarining xam bajarilishiga erishish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin .

Pedagogik ta'lim tarbiya berish jarayonida o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi va shu maqsadni amalga oshirish yo'llarini

belgilab olishi lozm. Bu yo'nalishlarni belgilashda o'quvchi yoshlarni individual psixologik va jismoniy xususiyatlari va o'quv faoliyati predmetlarini inobatga olgan xolda tanlab belgilab olishlari , yangi o'quv predmetlarini o'zlashtirishda amaliy samaradorlik darajasini oshiradi. "Oyin " texnologiyalaridan foydalanish o'quvchi faoliyatining psixologik tomonlarini ochib berish bilan birga o'rganilayotgan mavzuga o'quvchining mustaqil fikrlarini namoyon qilish imkoniyatini beradi, bu esa faoliyat jarayonida o'z o'zini topish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga imkon beradi.

"Oyin " texnologiyasi orqali o'quvchilarning o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ijod maydonida erkin ijod qilishga ega , xamda aniq maqsadni ko'zlagan xolda o'z iqtidorini namoyon etadishlari mumkin.

Bu kabi imkoniyatlar fanlar - aro bog'lanishlardan unumli foydalanishlari uchun kichik amaliyot vazifasini o'taydi, bu amaliyot jarayonida pedagog o'quvchilarning uyushqoqlik , ta'sirchanlik raxbarlik , liderlik, sofdillik , mardlik va o'zaro o'rtoqlik munosabatlarida o'zlarini qanday tutishlari , xamda jamoa oldida o'z burchlarini qanday xis etib bajarishlarini o'rganib nazorat qilish imkonini baeradi. "Oyin " o'zaro kurash musobaqalashish raqobat va imkoniyatlarni to'g'ri tanlash tashabbuskorlik tarzda kechganligi, bu faoliyatda o'quvchi mustaqil fikrlar , o'zini tashabbuskorlik qobiliyatini namoyon eta oladi. "Oyin " faoliyatida o'quvchini o'z fikrlarini mustaqil belgilab xarakterlar mavzuni boshqa fanlar va faoliyat turlari bilan bog'laydi. O'quvchini o'z rejasini bildira olishi uni amalga oshirish , unga eltuvchi metod usullar va vositalarni ishlab chiqishi o'z faoliyatini baholab tahlil etish imkonini yaratadi. Bu orqali esa tarbiyalanuvchi o'zidagi ijobiy sifatlarni baxolab tahlil etadi. Tadqiqot davrida maktab

o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'yinlarning ayrimlarini sinf raxbari, fan o'qituvchilari shu jumladan metodistlarga ham tavsiya etish mumkin "O'rin almashtirish"

"Quyvonlar va fillar"

"Lider bo'ling"

"Taqiqlangan xarakatlar"

Tavsiya etilayotgan "O'yin" texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirib, ko'zlagan maqsadga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Safo Ochil. "Mustaqillik ma'naviyatida va tarbiya asoslari", "O'qituvchi" nashriyoti - T.: 1995.
- 2.Z. Mirtursunov. "Xalq pedagogikasi" – T.: 1994.
- 3.A.Q.Munavvarov. "Pedagogika", "O'qituvchi" nashriyoti.1996.
- 4.Tolipov. O'. Q. Usbonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari" – Toshkent: "Fan" 2006.